

## BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot  
2024- yil yanvar-iyul*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel. 65-223-75-63*

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

### Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1- avgust holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 14 255 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 66 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 14 189 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 10 153,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 108,4 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 924,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 124,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 229,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 107,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 297,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,4 %) tashkil etdi.

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda</b>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>10 153,3</b>	<b>108,4</b>
Buxoro shahri	3 709,3	111,3
Kogon shahri	366,4	105,8
<i>tumanlar:</i>		
Olot	270,5	107,1
Buxoro	645,1	106,0
Vobkent	366,1	112,3
G'ijduvon	1 735,7	105,5
Kogon	254,9	112,2
Qorako'l	823,8	105,9
Qorovulbozor	167,0	108,6
Peshku	328,5	110,0
Romitan	524,6	105,3
Jondor	540,3	106,3
Shofirkon	421,1	107,1

2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning yanvar-iyul oylarga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (111,3 %), Kogon (112,2 %) va Peshku (110,0 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


## YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

### Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-iyul)



So'nggi 5 yillikda (2020-2024- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil qildi.

### 2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar-iyul oylarida o'sish sur'ati **108,4 %** ni tashkil qildi.

# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4

*Ulushi, foizda*




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 36,5 % bilan 3 709,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Qorovulbozor tumani 1,6 % bilan 167,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

*Hajmi, mlrd. so'm*





## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024 - yilning yanvar-iyul oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 9 229,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 7,0 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,9 % ni tashkil etdi.

107,0	Peshku
107,3	Olot
107,5	Shofirkon
108,7	Qorovulbozor
112,8	Vobkent
132,7	Kogon


## Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 24,7 % ga ko'paydi va 924,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,1 % ulushiga to'g'ri keldi.

92,8	G'ijduvon
93,8	Qorovulbozor
95,0	Kogon
99,0	Olot
111,4	Buxoro
115,4	Peshku
144,2	Buxoro sh.



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Yirik korxonalar


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Buxoro (99,5 %), Qorovulbozor (99,5 %) va Romitan (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 9,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (16,2 %), Peshku (38,2 %) va Kogon (46,2 %) tumanlarida kuzatildi.

**9,1 %**



**90,9 %**




Yirik korxonalar

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




## Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda



2024- yilning yanvar-iyul oylar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 4 950,6 ming. so'mni (2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 106,6 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (12 531,5 ming. so'm), Qorovulbozor (8 349,9 ming. so'm) va G'ijduvon (5 361,9 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar-iyun), foizda



**Dehqon bozorlari**



**Chorva bozorlari**

**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>645,9</b>	<b>117,7</b>
Buxoro shahri	180,8	138,6
Kogon shahri	7,8	112,8
Olot	18,0	164,0
Buxoro	23,4	146,0
Vobkent	67,5	128,9
G'ijduvon	178,7	100,9
Kogon	3,1	126,1
Qorako'l	104,5	97,7
Qorovulbozor	4,5	113,5
Peshku	17,5	148,5
Romitan	15,9	119,0
Jondor	13,2	197,4
Shofirkon	11,0	116,8


\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar-iyul)




### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mldr. so'm (2024- yil yanvar-iyul)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyul oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 297,7 mldr. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 115,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 645,9 mldr. so'mni (117,7 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 651,8 mldr so'mni tashkil etdi (113,1 %).


2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 645,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (287,3 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

### Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-iyul oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 651,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosи 560,4 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 86,4 mlrd. so'mni, otlar – 3,3 mlrd. so'mni, parrandalar – 1,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

### **Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosи hajmi va ulushi**



## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- avgust holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 850 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 844 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>442,0</b>	<b>108,5</b>
Buxoro shahri	240,2	100,3
Kogon shahri	7,4	103,0
<i>tumanlar:</i>		
Olot	5,1	108,9
Buxoro	23,5	118,4
Vobkent	23,5	105,8
G'ijduvon	36,1	196,3
Kogon	15,3	104,2
Qorako'l	14,4	104,5
Qorovulbozor	10,1	115,3
Peshku	7,4	105,3
Romitan	42,9	118,3
Jondor	8,4	107,1
Shofirkon	7,7	107,2

2024- yilning yanvar-iyul oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 442,0 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 477,8</b>	<b>100,0</b>
Buxoro shahri	1 546,4	62,4
Kogon shahri	5,4	0,2
<i>tumanlar:</i>		
Olot	14,0	0,6
Buxoro	28,6	1,1
Vobkent	298,7	12,1
G'ijduvon	281,8	11,4
Kogon	11,8	0,5
Qorako'l	17,6	0,7
Qorovulbozor	2,3	0,1
Peshku	11,1	0,4
Romitan	8,3	0,3
Jondor	240,8	9,7
Shofirkon	11,2	0,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (1 546,4 mlrd. so'm), Vobkent (298,7 mlrd. so'm) va G'ijduvon (281,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyul oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 2 477,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,5 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 516,9 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 95,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 960,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 142,7 %) tashkil qildi.

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olinan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 7 069,9 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 5,9 % ga o‘sdi.

### Savdo aylanmasi va ulushi

29,6 %  
2 089,7 mlrd. so‘m

**Yirik korxonalar**

70,4 %  
4 980,2 mlrd. so‘m

**Mikrofirma va kichik korxonalar**

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 4 980,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 70,4 % ni tashkil qildi.

## ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- avgust holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 34 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 532 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Qorako'l (2,4 m.) va Vobkent tumanlarida (141,9 %) kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>7 069,9</b>	<b>105,9</b>
Buxoro shahri	3 046,1	104,0
Kogon shahri	158,5	62,9
<i>tumanlar:</i>		
Olot	25,4	123,4
Buxoro	289,6	153,7
Vobkent	1 098,6	136,1
G'ijduvon	554,0	92,3
Kogon	472,1	97,3
Qorako'l	70,2	62,5
Qorovulbozor	116,0	48,1
Peshku	513,8	114,0
Romitan	373,1	129,4
Jondor	280,4	133,7
Shofirkon	72,1	78,9